

O'SMIRLARDA SALBIY XULQ-ATVORNI KORREKSIYA QILISH VA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLIISH

Ibragimova Saida Xashimdjanoyna

*Toshkent viloyati Bekobod tumani MMTB ga
qarashli 5-umumta'lim maktabi psixologi*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'smirlarda salbiy xulq-atvorni korreksiya qilish hamda jinoyatchilikning oldini olishning psixologik-pedagogik asoslari yoritilgan. O'smirlik davrida emotsional beqarorlik, ijtimoiy ta'sirga moyillik va shaxsiy identifikatsiya jarayonlari kuchayishi sababli deviant xulq shakllanish xavfi ortadi. Maqolada korreksion yondashuvlar, profilaktik chora-tadbirlar hamda oila, maktab va ijtimoiy muhitning o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: o'smirlar, salbiy xulq-atvor, korreksiya, jinoyatchilik, profilaktika, deviant xulq, ijtimoiy muhit, psixologik yordam, tarbiya, moslashuv.

KIRISH

O'smirlik davri shaxs rivojlanishining eng murakkab bosqichlaridan biri bo'lib, bu davrda psixologik, fiziologik va ijtimoiy o'zgarishlar tez kechadi. Shu sababli ayrim o'smirlarda salbiy xulq-atvor shakllanishi va ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqish holatlari kuzatilishi mumkin. Bunday holatlar o'z vaqtida aniqlanmasa, jinoyatchilik xulqining shakllanishiga olib kelishi ehtimoli ortadi. Salbiy xulq-atvorning kelib chiqishiga bir qator omillar ta'sir qiladi. Psixologik omillar sifatida emotsional beqarorlik, agressivlik, past o'zini baholash va stressga chidamlilikning pastligi ko'rsatiladi. Ijtimoiy omillar esa oiladagi nizolar, nazoratning yetishmasligi, tengdoshlar ta'siri va nosog'lom muhit bilan bog'liq. Korreksiya jarayonida psixologik diagnostika muhim ahamiyatga ega. O'smirning shaxsiy xususiyatlari, xulq-atvori va muammoli vaziyatlari aniqlanib, individual korreksion dastur ishlab chiqiladi.

Kognitiv-xulqiy yondashuv salbiy xulq-atvorni o'zgartirishda samarali usullardan biridir. Bu yondashuv o'smirning noto'g'ri fikrlash stereotiplarini aniqlash va ularni ijobiy xulq-atvor bilan almashtirishga qaratilgan. Guruh psixologik treninglar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular o'smirlarda muloqot ko'nikmalarini, empatiya va hamkorlik madaniyatini rivojlantiradi. Bu esa agressivlikni kamaytirishga yordam beradi. Sport, san'at va ijodiy faoliyatga jalb qilish o'smirlarning energiyasini ijobiy yo'nalishga yo'naltirish imkonini beradi. Bu sublimatsiya mexanizmi orqali salbiy xulqning kamayishiga xizmat qiladi.

Oila bilan ishlash ham korreksion jarayonning ajralmas qismidir. Ota-onalarga tarbiya usullarini to'g'ri qo'llash, muloqotni kuchaytirish va farzandni qo'llab-

quvvatlash bo'yicha psixologik maslahatlar beriladi. Maktab va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamkorligi jinoyatchilikning oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Profilaktik suhbatlar, nazorat va erta ogohlantirish tizimi samarali natija beradi. O'smirlik yoshida o'zini zaif, mustaqil emas yoki kichkina deb hisoblashdan qo'rqish kuchayadi. Shu sababli u o'z mustaqilligini isbotlashga intiladi va ba'zan o'zining noto'g'ri ekanligini bilsa ham, qaysarlik va qo'pollik ko'rsatishi mumkin. Muomalada dag'allik, ortiqcha talabchanlik, hurmatsizlik, shuningdek, o'smirni yosh boladek ko'rish, uning fikrini mensimaslik kabi holatlar ularda norozilik va salbiy xulq-atvorning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bunday munosabatlar o'smirning o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonchini susaytiradi hamda ichki qarshilikni kuchaytiradi.

O'smirlar o'z-o'zini tarbiyalashga ehtiyoj sezadilar. Bu holat ularning ong darajasi ortishi va kattalarga o'xshashga intilishi bilan izohlanadi. Ular o'zini ishontirish, o'ziga buyruq berish, o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish kabi o'z-o'zini boshqarish usullaridan foydalana boshlaydilar. Ayniqsa, jismoniy va irodaviy sifatlarni rivojlantirishga harakat qiladilar. Bu davrda ularda burch va javobgarlik hissi ham shakllanadi. O'smirlar ongli ravishda ma'lum maqsadni qo'yib, unga erishish yo'lida faol harakat qila oladigan bo'ladilar.

Agar oilada bolaning ehtiyojlari, qiziqishlari va muammolariga e'tibor berilmasa, uning fikri inobatga olinmasa yoki unga nisbatan zo'ravonlik qo'llanilsa, u o'z shaxsini noto'g'ri yo'llar orqali namoyon etishga urinishi mumkin. Bunday holatlar ba'zan buzg'unchilik yoki huquqbuzarlik xatti-harakatlariga olib keladi. Ruhiy yoki jismoniy zo'ravonlikka duch kelgan o'smir boshqalarga ham shunday munosabatda bo'lishdan cho'chimaydi.

Ba'zan bir sinfdan oliy ta'lim muassasalariga juda kam o'quvchi kirishi natijasida qolganlarda o'z jamiyatdagi o'rniga nisbatan shubha paydo bo'lishi mumkin. Natijada ayrim yoshlar o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqara olmay, yengil va maqsadsiz mehnat turlariga yuzlanadi. Bunday holatlarning oldini olish uchun ota-onalar farzandini o'qishga rag'batlantirishi, unga zarur shart-sharoitlarni yaratib berishi muhimdir.

Shuningdek, ota-onalar bilan ishlash, ularga bola tarbiyasi va psixologiyasi bo'yicha tushuntirish berish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki o'smirlar orasidagi huquqbuzarliklar ko'pincha oilaviy muhit bilan bevosita bog'liq bo'ladi, — deydi mutaxassislar. Insonda o'z xatti-harakatlari oqibatini anglash 25 yoshdan keyin to'liq shakllanadi. Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlikning oldini olish nafaqat huquqni muhofaza qilish organlari, balki oila, maktab, mahalla va yoshlar tashkilotlarining ham hamkorlikdagi vazifasidir. Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, insonda o'z xatti-harakatlari oqibatini to'liq anglash ko'nikmasi taxminan 25 yoshdan keyin to'liq shakllanadi. Shuningdek, jinoyat sodir etgan o'smirlarning katta qismi

ulgʻaygach ijobiy ijtimoiy xulq-atvorga ega boʻlib, huquqbuzarlik yoʻlini tark etishi aniqlangan.

UNICEF ham bolalar va oʻsmirlar bilan ishlashda profilaktik va qoʻllab-quvvatlovchi yondashuvlarni kuchaytirishni tavsiya etadi.

Oʻsmirlar xulq-atvorida qiziqishlarning taʼsiri muhim omil hisoblanadi. Qiziqish insonni faoliyatga undaydi, biroq notoʻgʻri yoʻnaltirilgan qiziqishlar salbiy xulq-atvorning shakllanishiga sabab boʻlishi mumkin. Aksincha, toʻgʻri yoʻnaltirilgan qiziqishlar oʻquvchilarning qobiliyatini rivojlantirib, ularni ilm, sport, sanʼat va boshqa foydali faoliyatlarga jalb etadi. Oʻsmirlar sport, turizm, kino, teatr va ijodiy toʻgaraklarga qiziqish bildiradilar. Bu qiziqishlar toʻgʻri tashkil etilsa, ular shaxsning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, oʻsmirlik davrida oʻz-oʻzini anglash jarayoni kuchayadi: u oʻzining kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilishga intiladi. Dastlab oʻsmir oʻzini baholashda koʻproq atrofdagilarning fikriga tayanadi. Keyinchalik esa u oʻzini mustaqil tahlil qila boshlaydi. Biroq bu davrda ular boshqalarni baholashda baʼzan shoshqaloqlikka yoʻl qoʻyib, ayrim xatti-harakatlarga qarab butun shaxs haqida xulosa chiqarishlari mumkin. Bu esa notoʻgʻri baholashlarga olib keladi.

Oʻsmirlar oʻzlariga berilgan bahoga juda sezgir boʻladilar. Tasodifiy muvaffaqiyat ularni haddan tashqari ishonchga, muvaffaqiyatsizlik esa ishonchsizlik va tortinchoqlikka olib kelishi mumkin. Shu sababli ota-onalar va pedagoglar oʻsmirlar bilan muloqotda ehtiyotkor, adolatli va psixologik jihatdan toʻgʻri yondashuvni qoʻllashlari zarur. Oʻsmir shaxsining shakllanishi murakkab jarayon boʻlib, unda oilaviy muhit, ijtimoiy munosabatlar va pedagogik yondashuv hal qiluvchi ahamiyatga ega.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, oʻsmirlarda salbiy xulq-atvorni korrektsiya qilish va jinoyatchilikni oldini olish kompleks psixologik-pedagogik yondashuvni talab etadi. Diagnostika, kognitiv-xulqiy terapiya, guruhii mashgʻulotlar, ijobiy faoliyatga yoʻnaltirish hamda oila va maktab hamkorligi ushbu muammoni kamaytirishda eng samarali vositalardir. Sogʻlom psixologik muhit yaratish oʻsmirlarning barkamol shaxs boʻlib shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Umarov B.M. Bolalar va oʻsmirlarda xulq ogʻishining kelib chiqishi va uning oldini olishning ayrim psixologik masalalari. //uslubiy qoʻllanma. – T. – 2008, 85bet.
2. Калмыкова Э. С., Падун М. А. Ранняя привязанность и ее влияние на устойчивость к психической травме: Постановка проблемы (Сообщ. 1) // Психологический журнал. – Т. 23. – М.: 2002. – № 5. – С.
3. Qarshiboyeva G. Oilada bolalarni xalq ogʻzaki ijodi naʼmunalari asosida tarbiyalash //Архив Научных Публикаций JSPI. –2020.

- 4.Шарафитдинов А. и др. Проблема застенчивости у ребенка и ее устранение
//Образование и воспитание. –2020. –No. 2. –С. 64-66.
- 5.Шарафитдинов А. и др. Формирование у учеников чувства общности
//Образование и воспитание. –2020. –No. 2. –С. 66-67

